



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-aprel*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 65-223-75-63*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 22 626 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 75 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 22 551 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 5 493,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 108,1 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 514,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 127,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 978,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 683,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 115,3 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	5 493,0	108,1
Buxoro shahri	2 421,4	108,9
Kogon shahri	121,4	103,5
<i>tumanlar:</i>		
Olot	151,0	109,3
Buxoro	303,5	102,2
Vobkent	152,0	104,8
G'ijduvon	861,9	112,0
Kogon	131,8	103,5
Qorako'l	384,1	108,2
Qorovulbozor	99,3	105,9
Peshku	174,9	105,3
Romitan	286,3	107,8
Jondor	261,1	104,8
Shofirkon	144,3	107,5


2024- yilning yanvar-aprel oyilarida 2023- yilning yanvar-aprel oylarga nisbatan viloyatining Buxoro shahri (108,9 %), G'ijduvon (112,0 %) va Olot (109,3 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-aprel)



So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil qildi.

2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-aprel oylarida o'sish sur'ati **108,1** % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 44,1 % bilan 2 421,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Qorovulbozor tumani 1,8 % bilan 99,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-aprel oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 4 978,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 6,4 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,6 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 27,6 % ga ko'paydi va 514,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,4 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (99,3 %), Qorovulbozor (99,5 %) va Romitan (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahri (13,7 %), Peshku (34,9 %) va Kogon (57,6 %) tumanlarida kuzatildi.

9,4 %



90,6 %



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

2024- yilning yanvar-aprel oylar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 683,0 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 106,3 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (8 200,0 ming. so'm), Qorovulbozor (4 987,4 ming. so'm) va G'ijduvon (2 668,5 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-aprel), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	324,1	119,6
Buxoro shahri	107,2	120,5
Kogon shahri	3,1	52,9
<i>tumanlar:</i>		
Olot	11,1	172,5
Buxoro	8,4	110,2
Vobkent	33,9	105,2
G‘ijduvon	82,5	170,1
Kogon	1,5	99,7
Qorako‘l	39,3	78,5
Qorovulbozor	2,7	124,8
Peshku	9,2	120,8
Romitan	9,3	109,4
Jondor	7,9	162,0
Shofirkon	8,0	118,4

* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

(2024- yil yanvar-aprel)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 683,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 115,3 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 324,1 mlrd. so'mni (119,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 359,3 mlrd so'mni tashkil etdi (111,6 %).

2024-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 324,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (152,9 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>152,9 mlrd. so'm</p>  <p>47,2 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>48,7 mlrd. so'm</p>  <p>15,0 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>17,1 mlrd. so'm</p>  <p>5,3 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>14,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,6 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>15,7 mlrd.</p>  <p>4,8 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>8,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>3,9 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>9,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>2,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,8 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>6,6 mlrd. so'm</p>  <p>2,0 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>2,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,8 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>41,9 mlrd. so'm</p> <p>13,0 %</p>

2024- yilning yanvar-aprel oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 359,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 309,0 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 47,7 mlrd. so'mni, otlar – 1,7 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,9 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>193,6 mlrd. so'm</p>  <p>53,9 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>69,2 mlrd. so'm</p>  <p>19,2 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>46,2 mlrd. so'm</p>  <p>12,9 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>35,9 mlrd. so'm</p>  <p>10,0 %</p>	<p>Otlar</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,5 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>11,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 850 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 844 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	230,3	105,8
Buxoro shahri	148,9	105,1
Kogon shahri	3,7	102,9
<i>tumanlar:</i>		
Olot	2,7	106,3
Buxoro	8,0	122,8
Vobkent	10,0	103,0
G'ijduvon	13,5	105,3
Kogon	2,8	103,6
Qorako'l	6,8	105,5
Qorovulbozor	5,6	100,2
Peshku	3,9	146,1
Romitan	15,4	104,0
Jondor	5,4	104,7
Shofirkon	3,6	103,8

2024- yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 230,3 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	1 181,5	100,0
Buxoro shahri	798,9	67,6
Kogon shahri	4,5	0,4
<i>tumanlar:</i>		
Olot	1,0	0,1
Buxoro	8,2	0,7
Vobkent	171,6	14,5
G'ijduvon	164,8	13,9
Kogon	3,7	0,3
Qorako'l	7,4	0,6
Qorovulbozor	1,3	0,1
Peshku	3,2	0,3
Romitan	5,5	0,5
Jondor	2,3	0,2
Shofirkon	9,1	0,8


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (798,9 mlrd. so'm), Vobkent (171,6 mlrd. so'm) va G'ijduvon (164,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-aprel oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 181,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,8 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 824,4 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 113,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 357,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 148,4 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 400,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 13,8 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 2 975,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 67,6 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 566 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 532 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Buxoro shaharida (199,1 %) va Vobkent tumanida (184,0 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	4 400,8	113,8
Buxoro shahri	1 714,9	113,1
Kogon shahri	34,9	40,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot	18,6	99,8
Buxoro	77,3	100,4
Vobkent	946,1	184,3
G'ijduvon	304,2	85,4
Kogon	304,9	97,3
Qorako'l	40,1	124,5
Qorovulbozor	20,7	100,7
Peshku	272,1	99,8
Romitan	275,0	100,9
Jondor	377,0	100,7
Shofirkon	15,0	99,2